ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TAXMISLARNING SPETSIFIK BELGILARI

Boltayeva Gulchehra Shokirovna,
NavDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc).
boltaevagulchekhra@gmail.com

Taxmis – ikki shoirning ijod mahsuli. Unda qalban, ruhan ijodiy yaqinlik, estetik did mushtarakligi, poetik mulohaza va mushohada umumiyligi yuzaga chiqib, yangi ijod namunasi vujudga keladi. Arabchada "beshtalik qilish", "beshtaga yetkazish" ma'nolarini ifodalagan taxmis bandlari ham mustaqil muxammaslar singari besh misradan iborat bo'ladi. Dastlabki uch misra taxmis yozayotgan shoir qalamiga, keyingi ikki misra esa, o'zga shoir qalamiga mansub bo'ladi. Birgina g'azalga bir nechta taxmis yozilishi mumkin. Taxmis yozuvchi o'ziga yoqqan shoir ijodiy namunasini tanlaydi va o'z fikrlari bilan to'ldiradi. Taxmischi tanlagan g'azalini g'oyaviy-badiiy, poetik jihatdan boyitib, yangi bir ijod namunasi yaratishi lozim. G'azalning vazni, qofiyasi va g'oyasi taxmis bilan o'zaro mushtarak bo'lishi muhim jihat sanaladi. Bunda "nafaqat shoirlik, tug'ma iste'dod, aruz vaznlarini chuqur bilish, muxammas qilish uchun tanlab olingan shoirning sabku uslublarini yaxshi bilish, muxammasga munosib deb topgan g'azalning zamoni, hissiyoti, maqsadi hayajoni, tasvirlari, xayollari, ya'ni she'ru shoirning olamiga kirish, ayniqsa, ularni o'z tuyg'ulari, o'z xayol olamidek his qilish kerak bo'ladi. Aks holda, taxmisda avvalgi shoirning misralari bilan keyingi shoirning misralari bir-biriga tabiiy ravishda qo'shilib, bog'lanib keta olmaydi, ularning uslubi, ruhi ajralib qoladi va bunday taxmis o'quvchiga lazzat bag'ishlay olmaydi"[1].

Ko'pincha, taxmis istilohi bilan birgalikda tazminga ham duch kelamiz. Tazmin g'azal asosida yaratiladigan musammat turidir. Fors-tojik adabiyotida Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Badoe' ul-afkor" asarida tazminning bir qancha turlari haqida fikr yuritib, tazminning turlari qatorida taxmis va tasdisni ham izohlab o'tadi, misollar keltiradi[2]. She'rshunos Hoji Nosir esa tazmin haqida quyidagilarni bayon etgan: "Tazminda shoir o'z fikrini tasdiqlash, rivojlantirish maqsadida qofiya, radif, vaznda mos keltirish sharti bilan o'zga bir she'rdan parcha keltiradi"[3].

Atoulloh Husayniy ham o'z asarida tazmin haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tadi: "Tazmin o'zgalarning she'ridan olinishi shart emastur. Demak, tarifta o'zganing she'rin demastin, o'zga she'rni deyilsa, yaxshiroq bo'lur edi. Ammo mazkur ta'ruf ul jihattin to'g'ridurkim, shuarovu fusaxoda o'z she'rin tazmin etish odati bag'oyat ozdur, aning uchun ham ta'rifta ani e'tibor qilmabturlar"[4]. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadi-ki, tazmin faqat o'zganing she'ridan parcha kiritish, iqtibos olish emas, balki o'z she'ridan olinishi ham mumkin. O'zbek adabiyotida esa o'z g'azali asosida tazmin yaratish adabiy hodisasi Furqat ijodida uchraydi. Shoir devoni ko'zdan kechirilganda "Adashganman" radifli 7 baytli g'azali[5] asosida 2 tazmin-muxammas yaratilganligi aniqlandi. 1-tazmin-muxammas "Kishi holim bilmas mehribonidin adashgonman, Vatan ovoradurmen, do'stonidin adashgonmen"[6] misralari bilan boshlanadi. 7 band 35 misradan iborat. 2-tazmin-muxammas esa 9 bayt 45 misradan iborat bo'lib, "Manam sho'rida bulbul bo'stondin adashganman, Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman"[7] misrasi bilan boshlanadi. Har ikki muxammas uchun "G'aribi bu viloyat xonumonidin adashganman, Basoni murg'i vahshiy oshyonidin adashganman" deb boshlanuvchi g'azalning matla' bayti tazmin qilingan.

O'zbek mumtoz adabiyotida taxmislar genezisi, tadriji, janr xususiyatlari va poetikasi masalalarini Alisher Navoiy she'riyati misolida o'rgangan T.Ruziboyev ularni har bir xalq adabiyotiga xos adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, adabiy-estetik qarashlar, turli davr va ruhiyat muammolari aks ettirilishi, ijodiy individuallik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi sifa-

[1] Шоҳғариб Мирзо Ғарибий. Девон. Нашрга тайёрловчи Шафиқа Ёрқин. –Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 29.
[2] Кашифи Хусайн Ваиз. Бадоеъ-ул-афкор. – Душанбе: Хумо, 2006. – С. 226.
[3] Мусулмонкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. – М.: Наука, 1989. – С. 69.
[4] Ҳусайний Атоулло Маҳмуд. Бадоеъ ус-саноеъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 246.
[5] Фурқат. Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1975. – Б. 128.
[6] O'sha joyda. – Б. 241-242.
[7] O'sha joyda. – Б. 243-244.

tida tadqiq etadi. Ammo T.Ruziboyev ishda taxmisni janr sifatida ta'kidlab o'tadi[1]. Bizningcha, bu o'rinda chalkashlik bor. Chunki taxmis janr emas, balki muxammasning ichki bir ko'rinishidir.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida juda ko'p shoirlar Alisher Navoiyga izdoshlik qilganlar. I.Adizovaning "Mavjudni mavjlantirgan naziralar" nomli maqolasida adabiyot taraqqiyotida mumtoz an'analar va naziranavislikning o'rni yoritilgan. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Isi" radifli g'azalga Amiriy, Uvaysiy, Furqat bog'lagan nazira-g'azallarining taraqqiyot bosqichlari tadqiq etilgan. Ammo maqolaning ba'zi o'rinlarida bahstalab fikrlar uchraydi. Ushbu maqolada olima: "Alisher Navoiyning "Badoe' ul-vasat" devonida "Bog' aro go'yo sabo solmish edi jonon isi, Kim, etishgach gul isi, men toptim andin jon isi" matlasi bilan boshlanuvchi bir g'azali bor. O'zbek adabiyoti tarixida mazkur g'azalga ko'plab ijodkorlar nazira bog'lashgan. Bu, ayniqsa, Qo'qon adabiy muhitida an'anaga aylangan. O'ziga xos adabiy musobaqa tusini olgan", – deya ta'kidlab, R.Orzibekov Navoiyning bu g'azaliga Furqat nazira, Rojiy va Nodim muxammas, Nodim yana, o'z navbatida, Rojiyning tazminli muxammasiga musamman yozganligi haqidagi ma'lumotini keltiradi[2].

I.Adizova Navoiyning mazkur g'azaliga Rojiy Marg'iloniy ham nazira- muxammas yozganligini qayd etib, uni tadqiq etgan R.Orzibekov fikriga e'tiroz bildiradi: "Navoiyning mazkur g'azaliga Rojiy Marg'iloniy ham nazira-muxammas yozgan. Uni tadqiq etgan adabiyotshunos olim R.Orzibekov shunday mulohaza bildiradi: "Rojiy Marg'iloniyning mazkur g'azalga hazaj bahrining hazaji musamman shaxobchasida yozgan muxammasidan bir bandi quyidagicha: Elga bargi aysh ekan har bir guli bo'ston isi, Iskadim men g'am samumi birla go'yo qon isi. Topmadim gulshan nasimidin magar hirmon isi, "Gar bahor el topsa bo'stondin gul-u rayhon isi, Kelur ul rayhon ila guldin menga hijron isi". Tazminli nazira muxammasning birinchi bandi bo'lgan bu parchada qo'shtirnoq orasidagi so'nggi 4- va 5-misralar Alisher Navoiyning shu radifli g'azalining matla'i bo'lib, uning ustidagi uch misra Rojiyning o'z tab'idandir"[3]. Bunda I.Adizova "nazira-muxammas" degan terminni qo'llaydi. Bizningcha olima, bu terminni qo'llash orqali tazmin-muxammaslarni nazarda tutgan. Chunki tazminda shoir boshqa bir shoir g'azalidan bor-yo'g'i bir bayt yoki bir misrani oladi, qolgan bandlar mustaqil bo'ladi va mazmunan bir-biriga muvofiq keladi. Buni "Badoyi'us-sanoyi'"dagi fikrlar ham tasdiqlaydi: "Tazmin lug'atta bir nimani bir nimaning orasig'a qo'ymoqtur va juftlashmoqtur"[4]. Mazkur qarashlarni D.Quronov ham qayd etadi: "Ba'zan naziraga nisbatan tazmin atamasi ham ishlatiladi. Biroq ilmiy bade'ga oid ayrim manbalarda nazira bilan tazmin jiddiy farqlanadi: o'zga shoirning misra yoki baytini she'rda aynan keltirish tazmin, birovning she'riga javob sifatida, adabiy musobaqa tarzida yozilgan she'r nazira yoki tatabbu' atamalari bilan yuritiladi"[5]. Ko'rinadiki, bunda olim nazira va tazminning nozik farqini aniqlagan. I.Adizova nazira-muxammas terminida ularning ba'zan sinonim istiloh sifatida qo'llanilishidan kelib chiqqan.

I.Adizovaning Alisher Navoiy "Isi" radifli g'azalida "Gar bahor el topsa bo'stondin gul-u rayhon isi, Kelur ul rayhon ila guldin menga hijron isi" tarzidagi matla' uchramasligi haqidagi fikrlariga qo'shilib bo'lmaydi. Darhaqiqat, bunday matla'li g'azal Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plamining 5-jildi "Badoye ul-vasat" devonining 606-raqamli g'azali bo'lib, uning matla'si aynan mos keladi. Bu R.Orzibekov fikrlarida ham o'z ifodasini topgan[6].

Taxmis bog'lash bir qaraganda, osondek tuyiladi, ammo uning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Masalan, o'zga shoir va taxmischining fikrlari, g'oyalari mushtarak bo'lishi zarur. Taxmischi o'zga shoir ijodidan parcha olib, unga o'z yaratmalarini qo'shib, oldingi ijodkordan ham kuchli g'oyani ifodalab, yangi ijod mahsuli saviyasini yanada yuqoriga ko'tarishi zarur. Badiiy shakl (vazn, qofiya) va mazmunni saqlagan holda, mahoratini namoyish etib, badiiy mukammal asar yaratish demakdir. Yoqubjon Ishoqov ta'kidlaganidek, "Taxmis qilish shunchaki shaklbozlik emas, balki mahorat sinovidir. Avvalo, u yoki bu shoirning muayyan g'azalini tanlashda shoirning dunyoqarashi, estetik nuqtayi nazari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qolaversa, taxmis usuli – har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lishi mumkin"[7].

[1] Рузибоев Т. Тахмис генезиси, тадрижи, жанр хусусиятлари ва поэтикаси (Алишер Навоий тахмислари мисолида). Филол. фан.б. фалс.док. (PhD) дисс. автореф. – Наманган, 2022. – Б. 7-8.

[2] Adizova I. Mavjudni mavjlantirgan naziralar. "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2021. – B. 191.

[3] O'sha joyda. – B. 192.

[4] Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 105.

[5] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 161.

[6] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Бешинчи том. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 442.

[7] Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 127.

O‘zbek adabiyotida ilk taxmislar Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liqdir. Navoiygacha taxmis san’ati o‘zbek adabiyotida mavjud emas edi. Ijodkorlar juda kam hollarda o‘z g‘azallariga taxmis bog‘laydilar. Bizga ma’lumki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonidan o‘rin olgan 10 ta muxammasining barchasi taxmislardir. Ulardan 3 tasi “malik ul- kalom” Lutfiy g‘azallari, qolgan 7 tasi esa shoirning o‘z g‘azallari asosida yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu “7 taxmisdan oltitasiga asos bo‘lgan g‘azallar shoirning yoshlik va yigitlik davrlarida yaratilgan”ligi (ta’kid D.Yusupovaga tegishli) bilan xarakterlanadi. Ulug‘ shoirning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lash hodisasini D.Yusupova quyidagicha izohlaydi: “Ma’lumki, Alisher Navoiy so‘zga, xususan, she’rga yuksak talabchanlik bilan yondashgan. U har bir janrning qonun-qoidalarini chuqur bilgani holda muxammas janriga ham ijodkor g‘oyalarining ifodasi sifatida qaragan. Alisher Navoiy tanlagan g‘azalda buyuk shoirning dard-u dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so‘ng turkiy adabiyotda mana shunday she’r namunasiga duch kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o‘z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo‘lgan Alisher Navoiyning o‘z g‘azallariga taxmis bog‘lashiga olib kelgan bo‘lishi mumkin”[1].

Alisher Navoiy ijodida uchraydigan bu adabiy hodisani A.Abdug‘ofurov quyidagicha izohlaydi: “O‘z g‘azallariga taxmis bog‘lash tajribasini adabiyotimiz tarixida Navoiy boshlab bergan. Keyinchalik umuman she’riyatimizda muxammasning g‘azaldan keyin yetakchi o‘ringa ko‘tarilishida ulug‘ shoirning bu ijodiy faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynagan”[2].

Taxmis bog‘lashni o‘ziga xos ijodiy jarayon sifatida ta’riflab, R.Majidiy shunday deydi: “Muxammas bog‘lash shoir ijodiy doirasining kengayishiga, o‘tmishdagi ilg‘or shoirlar ijodi bilan qiziqishning oshishiga, ular qoldirgan ijodiy traditsiyani egallashga va ularning ilg‘or fikrlarini xalqqa yetkazishga xizmat qilgan[3]”.

Ijodkorlar taxmis yozish asosida o‘z mahoratlarini namoyon etishar ekan, Alisher Navoiy faqatgina Lutfiy g‘azallariga taxmis bog‘laydi. Buning sababi, birinchidan, Mavlono Lutfiy turkiy adabiyotda maktab yarata olgan ulug‘ shoir edi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy Lutfiyni yuksak iste’dod sohibi sifatida tan olar edi. Buni shoirning “Majolis un-nafois” asarida Lutfiyni forsiy va turkiyda o‘xshashi yo‘q so‘z san’atkori ekanligi haqidagi fikrlari ham dalillaydi.

Umuman olganda, taxmis muallifidan g‘azalda keltirilgan fikrlarni mantiqan rivojlantirish, asoslash, to‘ldirish va boyitish talab etiladi. Natijada, taxmis bog‘lagan shoirning ijod mahsuli unga asos bo‘lib xizmat qilgan g‘azal bilan shakl va mazmunda, poetik ifoda va tasvirda uyg‘unlashib, go‘yo bir muallif qalamiga mansub asardek tasavvur qoldiradi. Bunday natijaga erishmagan muxammas asos g‘azalning soyasida, o‘quvchi e’tiboridan chetda qoladi. Sevib o‘qilmaydi.

An’ana va izdoshlik talabi asosida taxmis yaratish shoir ijodiy doirasining kengayishiga, g‘oyaviy-badiiy mushtaraklikka, ma’lum bir g‘azalning ma’no-mohiyatini chuqur ifodalashga, xalq orasida shuhrat qozonishiga, o‘qimishliligini ta’minlashga, adabiyot gulshani va musiqa olamida munosib auditoriyasini topishiga, geografiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu – muxammasning janr sifatida shakllanishi va yetti asrdan ortiq vaqt mobaynida tadrijiy takomili, rivojlanishining yorqin belgisidir.

Резюме: В узбекской классической литературе важное значение имеет изучение генезиса, художественного развития, жанровых особенностей и поэтики тахмисов. В литературоведении тахмиси исследуются как образец литературного влияния, литературных связей, литературно-эстетические воззрения, отражение проблем различных эпох и психики, образец творческой индивидуальности, поэтического мастерства, пример творческого конкурса, выражение национальных и общечеловеческих ценностей. В этой статье обсуждаются литературно-эстетические требования, предъявляемые к тахмисам.

Resume: In Uzbek classical literature, the study of genesis, artistic development, genre features and poetics of tahmis is important. In literary criticism, tahmisi are studied as an example of literary influence, literary ties, literary and aesthetic views, reflection of the problems of various eras and psyche, an example of creative individuality, poetic skill, an example of creative competition, expression of national and universal values. This article discusses the literary and aesthetic requirements for tahmis.

[1] Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari. http://www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.html. 21.08.19.
[2] Абдуғофуров А. Алишер Навоий мусамматлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. №1. – Б. 27-33.
[3] Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 89.